



## **XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI Q A R O R I**

---



---

2022 - yil 3 - iyun

VI-35-70-4-63-K/22

Mirishkor tuman hokimligi

**Mirishkor tumanining 2022 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha soliq va  
tushumlar istiqbol rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan kelib tushgan  
mablag'larni tegishli sohalarga yo'naltirish to'g'risida.**

Mirishkor tumanining 2022 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha soliq va tushumlar istiqbol rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan kelib tushgan mablag'larni tegishli sohalarga yo'naltirish to'g'risidagi tuman moliya bo'limi boshlig'i A.Shukurovning axborotini tinglab, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga asosan Xalq deputatlari Mirishkor tumanı Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Tuman moliya bo'limi boshlig'i A.Shukurovning axborotidagi tuman budgetining 2022 yil 1-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilishi hisobiga 300.0 mln.so'm qo'shimcha mablag'larni shakllanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari (A.Sariqov) va tuman moliya bo'limi (A.Shukurov) lar bir xafka muddatda mazkur qarorga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi talablari asosida ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimligi xizmat avtomashinalarini ta'mirlash uchun 28.4 ming so'm,

Vedio-audio selektrlari uchun 20.0 ming so‘m, Internet aloqalari uchun 36.0 ming so‘m, Telefon aloqasi uchun 2.0 ming so‘m, Pochta xarajatlariga 2.0 ming so‘m, Xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i materiallari uchun 40.0 ming so‘m, Xalq qabulxonasini elektr energiyasi uchun 10.0 ming so‘m, Vakilov Azamatni rag‘batlantirish uchun 15.0 ming so‘m, Tuman xotin-qizlar bo‘limiga kampyuter va prentirlar olib berish uchun 30.0 ming so‘m, kontrakt to‘loviga 10.4 ming so‘m, Tuman mudofaa bo‘limi binosini ta’mirlashdan qolgan qarzi uchun 20.0 ming so‘m va boshqa xarajatlar uchun 86.2 ming so‘m jami 300.0 ming so‘m tuman hokimining qaror loyihasini kirmsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (SH.Nashirov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarini o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisihamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sariqov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi



Sh.Ch.Sanayev